

Mavzu: 1-sinfda o‘tilganlarni takrorlash

Aa / Kuz – hosiling yuz.

hosil



1-mashq. O‘qing. Matndagi uch bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

Hosil bayrami

Hosil¹ bayrami – dehqon va fermerlarning mehnatini qadrlash uchun nishonlanadigan bayram. Bu kunda dalalarda yetishtirilgan meva-sabzavotlar namoyish qilinadi. Hosil bayrami xalqimizning mehnatsevarligi va tabiatga bo‘lgan hurmatining namunasidir.



2-mashq. Ifodali o‘qing. Husnixat bilan ko‘chiring.

Qushlar

Osmon uzra charx urib,
Joni-dili barq urib,
Qushlar, qushlar, qushlar-ey,
Ko‘kda ko‘ngil xushlar-ey.

Qolmas ko‘kda ovunib,
Zamin ko‘ksin sog‘inib,
Yurt ishqida suyunib,
Pastga tushar quyilib.



Inlarida to‘sh qo‘yib,
Orom olishar to‘yib.
Vatan mehri baxt, deydi,
Rizq-nasiba taxt, deydi.

Qambar Ota

- “Rizq-nasiba taxt, deydi” iborasini qanday tushunasiz?



3-mashq. O'qing. Matndan to'rt bo'g'inli so'zlarni toping.

Dalada

Ertalab biz sabzavot dalasiga yo'l oldik. U yerda ish allaqachon qizg'in pallada: kartoshka hamda sabzi yig'ishtirib olinayotgan edi. Biz ham yordam berishga kirishdik. Jasur sabzilarni, men esa kartoshkalarni saralab qoplarga joylashga ko'maklashdik.



4-mashq. O'qing. She'r mazmunidan kelib chiqib kichik hikoya tuzing. *Kuz* so'ziga bir tovush bilan farqlanadigan so'zlar toping.

Namuna: kuz – yuz, ...

Yaproqlar oltinlandi

Yashil yaproqlar kuzda
Oltinlandi sarg'ayib.
Hamma daraxt bir karra
Baravar qoldi boyib.

Achchiq yellar yulqilab,
Qochdi boyliklarini.
To'g'ri kelgan tarafga
Sochdi boyliklarini.



Shoxlar ma'yus, deganday:
Oltinlar – qo'lni kir...
Yaproqlarin sog'inib,
Turar shirin tush ko'rib.

Qambar Ota

